



FILMLAR VA OMMAVIY MADANIYAT

Iskandarova Oltinoy Akmal qizi

Urganch davlat pedagogika instituti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqalada "ommaviy madaniyat" nomi ostida yurtimizga kirib kelayotgan madaniyatimizga, an'analarimizga yot bo'lgan g'oyalar, qarashlar va ularning yoshlar orasida keng yoyilishi, unga qarshi ma'naviy kurash kabi masalalar tahlil qilingan. [1]

Kalit so'zlar: "ommaviy madaniyat", milliy an'analar, ko'hna tarix, yot g'oyalar, musiqa va filmlar orqali madaniyatimizga solinayotgan tahdidlar

FILMS AND MASS CULTURE

Abstract: This article analyzes issues such as ideas, views, thoughts alien to our culture and traditions, which are entering our country under the name of "mass culture", and their widespread spread among young people, as well as the spiritual struggle against it. [1]

Keywords: "Popular culture", national traditions, ancient history, foreign ideas, threats to our culture through music and films

ФИЛЬМЫ И МАССОВАЯ КУЛЬТУРА

Аннотация: В данной статье рассматриваются чуждые нашей культуре и традициям идеи, взгляды, мнения, проникающие в нашу страну под именем «массовой культуры», и их широкое распространение среди молодежи, а также духовная борьба с ней, анализируются. [1]

Ключевые слова: «Народная культура», национальные традиции, древняя история, иноземные идеи, ущерб нашей культуре через музыку и кино.

KIRISH

Ikki azim daryo oralig'ida joylashgan jannatmakon O'zbekiston o'zining milliy urf-odat va an'analariga, o'chmas tarixiga, boy ma'naviy merosiga ega. Yillar davomida shaklangan va avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy an'analarga hozirgi kunda "ommaviy madaniyat" nomi ostida ba'zi bir tahdidlar xavf solmoqda. Xo'sh, ommaviy madaniyat o'zi nima? Bu savolga O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'z asarida shunday deb yozadi: "Globallashuv bilan bog'liq ommaviy madaniyat ommaviy ishlab chiqarish, "ko'ngil ochish industriyasi" tomonidan yaratilgan, omma iste'moliga mo'jallangan madaniyatning sayqallashtirilgan namunalari ko'rinishdagi salbiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda va uni amalda olomon madaniyati deb tariflasak to'g'ri



keladi. “Ommaviy madaniyat “ tub mohiyatiga ko’ra milliy madaniyatlarning kushandasidir.”¹

Bu fikrlar to’g’riligiga shubha yo’q, albatta. Bugungi kunda “ommaviy madaniyat” nomi ostida kirib kelayotgan g’oyalar, turli xil qarashlar yoshlar ongiga kuchli ta’sir qilyapti. Bu kabi chet eldan kirib kelayotgan urf-odatlarimizga yot bo’lgan narsalarga taqlid qilish, o’zlari ham shunday video yoki rasm olib bevosita yoki bilvosita shu madaniyatning bir qismiga aylanish, ularni ko’r-ko’rona takrorlab yurish bilan bog’liq haqiqatlarga yuz bermoqda. Islom Karimov bu haqida “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” asarida shunday yozadi: “Ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo’ravonlik, individualizm, egotseatrizm g’oyalarini tarqatish, kerak bo’lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo’porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo’ymaydi”.²

Bu tahdidlar ayniqsa filmlarda yaqqol ko’zga tashlanadi. Mana shu filmlarni tomosha qilish jarayonida mentalitetimizga to’g’ri kelmaydigan, ma’nan va axloqan yot g’oyalar kirib kelayotganini ko’rish mumkin. Bu ommaviy madaniyat nomini olgan narsa aslida “olomon madaniyati”, xalqimizning necha ming yillik tarixiy an’analariga rahna solish, ko’z olaytirish usuli. “Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir narsalarga alohida e’tibor berishimiz lozim. Ya’ni, kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so’ng jamiyatda paydo bo’lgan g’oyaviy bo’shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutloqo yot bo’lgan, ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o’z ichiga olgan “ommaviy madaniyat “yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak”.³

Hozirgi kunda “ommaviy madaniyat” bayrog’i ostida bevosita o’z an’analarimizga, madaniyatimizga tahdid solmoqda . General Skobelov “ Millatni yo’q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san’atini, tilini yo’q qilsang bas, tez orada o’zi tanazzulga uchraydi.”⁴ Bunga tarixga tayanib ham misollar keltirishimiz mumkin. Sobiq Sovet Ittifoqi bizning yurtimizni mustamlakaga aylantirgandan keyin urf-odatlarimiz, an’analarimiz, jumladan, Navro’z bayramimizni nishonlashga qarshilik qilganlar. Bu kabi madaniyatga bo’lgan tahdidlar hozirgi kunda "ommaviy madaniyat" nomini olgan. Shu tariqa xalqning o’zligiga nisbatan tahdidlar bo’lmoqda. Bu xususda yoshlarga kerakli fikr-mulohazalar berib, ulaga to’g’ri xulosa chiqarishda yordam berish lozim. “Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarini mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog’liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko’pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanligini anglab olmoqda”.⁵

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi glaballashuv zamonida filmlar va musiqalar orqali kirib kelayotgan o’zligimizga, qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga zid bo’lgan g’oyalar, turli xil yot madaniyatlarni ko’rish jarayonida millatning o’zligini, kelib chiqishini, an’analarini, tarix zarvaraqlariga muhrlangan ko’hna tarixii, shu zaminda



yashagan bobolarini unutmashligi kerak. Zero, har bir millat yillar davomida shakllanib kelayotgan, bobolaridan meros bo‘lib qolgan qadriyatlariga ega. Bu qadriyatlarni , ma’naviy merosni ko‘z qorachig‘imizdek asramoq bizlar uchun ham qarz, ham farzdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Mana'viyat 2008 77-bet.
2. Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Mana'viyat 2008 73-bet.
3. Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Mana'viyat 2008
4. Q. Usmonov. Ozbekiston tarixi . Darslik . Turon-Iqbol nashiryoti . Toshkent- 2012
2-bet
5. Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Mana'viyat 2008 87-bet.